

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

# 2022

**ERNEST XEMINGUEY**  
(1899-1961)

*Chol qushlar va ayniqsa, belinin oziq  
axtariib uchgan, ammo deyarli hech qachon  
uni topolmaydigan jumboq va nozik dengiz  
qaldirg'ochlariga achilib ketar va qushlar  
turmishi, qirin-gora va katta, kuchli  
qushlarni hisobga olmayanda, bizning kun  
kechirishimizga qaraganda ham juda og'ir.  
Okean gahida shu qadar ham beshim bolalar  
ekan, nima uchun qushlarni mana bu  
dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va  
shikasta qilib yaratganlar. Okean saxsi va  
gozal, ammo u gah to'xtidan shunday  
shafqatsiz bolib ketadiki, uning ustidagi  
oziq dindagi chary urib cho'ngib, oziq va  
mangli ovoz bilan bir-birlariga qar bolib  
uchgan bu qushlar uning nisbatan  
benihoya zaf va mo'ri ko'rinadi.*

**"CHOL VA DENGIZ" ASARI**

# AVGUST

# №43



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
7-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-7**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-7**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 40 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

<b>1. Аллаберганова Мухайё Сапарбаевна, Аллаберганова Ирода Сапарбаевна</b> ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ .....	7
<b>2. Rahmatullayeva Ruqiya</b> RUS TILI DARSLARIDA SAMARALI MUOMMALI VAZIYAT YARATISH USULLARI.....	9
<b>3. Полвонова Дилором Худойдотовна</b> РКИ СЕГОДНЯ: НОВЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ .....	11
<b>4. Рахмонов Хусанбой Абжалил ўғли</b> ОЛАМНИНГ БАДИИЙ МАНЗАРАСИ ВА УНДА АССОЦИАТИВ БИРЛИКЛАРНИНГ ЎРНИ.....	14
<b>5. Отабоева Сурайё Рустам қизи</b> РУС ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ҲОЯЛАР ХАМДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАР.....	16
<b>6. Islomova Oygul Abdujabborovna, Hasanova Gavhar Abdunazarovna</b> ОНА ТИЛИ DARSLARIDA LEKSIKOLOGIYAGA OID BILIMLARNING O'QITILISHINING АНАМИЯТИ .....	18
<b>7. Nokiyeva Bibijon</b> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI RUS TILI FANIGA O'RGATISHNING INTERFAOL METODALARI.....	20
<b>8. Batirova Barno Aminovna, Ernafasova Mukaddas Yuldashbayevna</b> ABUL QOSIM MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING SHARQ FILOLOGIYASIDAGI O'RNI .....	21
<b>9. Bekchanova Manzura Qadambayevna</b> PECULIARITIES OF GAMES IN ENGLISH LESSONS.....	23
<b>10. Dusnazarova Nazokat Reyimberganovna, Sultanova Zulfiya Sadullayevna</b> ОНА ТИЛИ O'QITUVCHISI VA ОНА ТИЛИ DARSIGA QO'YILADIGAN ILMIY PEDAGOGIK TALABLAR.....	25
<b>11. Eshchanova Munira Temur qizi</b> YANGI O'ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ.....	27
<b>12. Fayzullayev Ravshonbek Ramatovich</b> RUS TILI DUNYO TILLARIDAN BIRI .....	29
<b>13. Latipova Iroda Xursandovna</b> TIL MILLATNING RAMZI .....	30
<b>14. Matrasulova Sultanpashsha Farxodovna, Abdullayeva Gulandom Urunbayevna</b> ADABIYOT DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING QO'LLASH .....	32
<b>15. Qurbonova Sayyora Yuldashovna, Pirnazarova Zamira Matnazarovna</b> DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILARNING IDROK QILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH.....	34
<b>16. Xodjaniyazov Farhod Sheryazovich, Xujaniyazova Zulxumar Yuldashevna</b> LISONIY TAHLIL HAQIDA. FONETIK TAHLIL VA UNING O'ZIGA XOS TOMONLARI, LISONIY TAHLIL VA UNING TURLARI .....	36
<b>17. Boydjanova Muborak Boltabayevna, Kushchanova Maqsuda Reyimberganovna</b> ОНА ТИЛИ VA ADABIYOT DARSLARIDA MASHG'ULOTLARI O'QUVCHILAR SO'Z BOYLIгинI OSHIRISHNING .....	38



## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

**Аллаберганова Мухайё Сапарбаевна**  
Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 5-сон  
ИДУМ нинг немис тили фани ўқитувчиси  
muhayyoallaberganova@gmail.com

**Аллаберганова Ирода Сапарбаевна**  
Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 5-сон  
ИДУМ нинг немис тили фани ўқитувчиси  
Тел + 99-894-312-64-63, 97-221-02-84  
irodaallaberganova@gmail.com

**Аннотация:** Таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим жараёнининг марказида таълим олувчи бўлган хақида сўз юритилади.

**Калит сўзлар:** Методлар, муаммоли вазият, таълим, дарс жараени.

“Баҳс-мунозара” методи - бирор мавзу бўйича таълим олувчилар билан ўзаро баҳс, фикр алмашинув тарзида ўтказиладиган ўқитиш методидир.

Ҳар қандай мавзу ва муаммолар мавжуд билимлар ва тажрибалар асосида муҳокама қилиниши назарда тутилган ҳолда ушбу метод қўлланилади. Баҳс-мунозарани бошқариб бориш вазифасини таълим олувчиларнинг бирига топшириши ёки таълим берувчининг ўзи олиб бориши мумкин. Баҳс-мунозарани эркин ҳолатда олиб бориш ва ҳар бир таълим олувчини мунозарага жалб этишга ҳаракат қилиш лозим. Ушбу метод олиб борилаётганда таълим олувчилар орасида пайдо бўладиган низоларни дарҳол баргараф этишга ҳаракат қилиш керак.

“Баҳс-мунозара” методини ўтказишда қуйидаги қоидаларга амал қилиш керак:

- барча таълим олувчилар иштирок этиши учун имконият яратиш;
- “ўнг қўл” қоидаси (қўлини кўтариб, руҳсат олгандан сўнг сўзлаш)га риоя қилиш;
- фикр-ғояларни тинглаш маданияти;
- билдирилган фикр-ғояларнинг такрорланмаслиги;
- бир-бирларига ўзаро ҳурмат.





“Баҳс-мунозара” методининг босқичлари қуйидагилардан иборат:

1. Таълим берувчи мунозара мавзусини танлайди ва шунга доир саволлар ишлаб чиқади.
  2. Таълим берувчи таълим олувчиларга муаммо бўйича савол беради ва уларни мунозарага таклиф этади.
  3. Таълим берувчи берилган саволга билдирилган жавобларни, яъни турли ғоя ва фикрларни ёзиб боради ёки бу вазифани бажариш учун таълим олувчилардан бирини котиб этиб тайинлайди. Бу босқичда таълим берувчи таълим олувчиларга ўз фикрларини эркин билдиришларига шароит яратиб беради.
  4. Таълим берувчи таълим олувчилар билан биргаликда билдирилган фикр ва ғояларни гуруҳларга ажратади, умумлаштиради ва таҳлил қилади.
  5. Таҳлил натижасида қўйилган муаммонинг энг мақбул ечими танланади.
- “Баҳс-мунозара” методининг афзалликлари:
- таълим олувчиларни мустақил фикрлашга ундайди;
  - таълим олувчилар ўз фикрининг тўғрилигини исботлашга ҳаракат қилишига имконият яратилади;
  - таълим олувчиларда тинглаш ва таҳлил қилиш қобилиятининг ривожланишига ёрдам беради.
- “Баҳс-мунозара” методининг камчиликлари:
- таълим берувчидан юксак бошқариш маҳоратини талаб этади;
- таълим олувчиларнинг билим даражасига мос ва қизиқарли бўлган мавзу танлаш талаб этилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Азизхужаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997



## RUS TILI DARSLARIDA SAMARALI MUOMMALI VAZIYAT YARATISH USULLARI

**Rahmatullayeva Ruqiya**

Xorazm viloyati Qo`shko`pir tumani  
35- son maktabi rus tili fani o`qituvchisi  
Tel + 99-894-232-93-98  
ruqiyarahmatullayeva@gmail.com

**Annotatsiya:** Rus tili darslarida samarali muammoli vaziyat yaratish usullari, badiiy asar ustida ishlashda tanlab o`qish matnini tasvirlash, har bir janrdagi asar matnlarini o`qitish usullari, asar mazmunini tahlil qilish usullari keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** Ifodali o`qish, Muammoli vaziyat , sintez- analiz- sintez jarayoni.

Rus tili darslarida o`qituvchi ko`proq o`quvchi faoliyati bilan bog`liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o`quv materialini tushuntirib berish yoki o`quvchi duch keladigan tushuncha, ta`rif va qoidalar atrofida suhbat o`tkazish bilan o`rgatib bo`lmaydi. O`qitishning amaliy metodlariga tayangan o`qituvchi o`quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o`quvchining faolligini to`g`ri uyushtira oladi va uning muvaffaqiyatli kechishini ta`minlaydi.

O`qituvchi faoliyati bilan bog`liq metodlarning eng serunumi muammoli o`qitishdir. Taniqli rus olimi I. Kudryashev muammoli ta`lim xususida shunday degan edi: “... muammoli ta`lim o`quvchilarning ijodiy ko`nikmalarini rivojlantirgan holda bilimlarni faol o`zlashtirishini nazarda tutadi”.\*

Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u o`quvchi biladigan ma`lumotlar bilan yangi faktlar, hodisalar o`rtasida muayyan qaror qabul qilishning qiyinchiliklari oqibatida kelib chiqadigan holat, vaziyatdir. Uni muammoning kelib chiqish sabablarini, yechimni topishga undaydi.

Biz muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanishni maslahat beramiz:

**1. Rus tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o`rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish.**

Har bir mavzu o`quvchilardan tovushlar, so`zlar va gaplarni qiyoslashni, shu asosda umumlashmalar hosil qilishini talab etadi. O`quvchilarda “Nima uchun” degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug`iladi. Masalan, “Unli va undosh tovushlar” mavzusi o`rganilayotganda o`quvchi avval unli va undosh tovushlarni to`g`ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so`zlar, so`zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi.

**2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.**

O`qituvchi dars mashg`ulotini muammoli savolni o`rtaga tashlash bilan boshlaydi. Masalan, 1) unli va undosh tovushlarni alohida - alohida aytib ko`ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz? 2) Oltita unli harf ishtirok etgan so`z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko`ring. Qanday o`zgarishlarni sezayapsiz? 3) undosh tovushlarni talaffuz etib ko`ring. Shovqin va ovozdan hosil bol`gan undoshlar alohida, faqat shovqindan hosil bo`lgan undoshlarni alohida yozing.

**3. Muammoli vaziyat yaratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi.** Ayniqsa , so`zlarni muayyan uyalarga birlashtirish, umumiy ma`noli so`zning xususiy ma`nosini yoki xususiy ma`noli so`zlarning umumiy ma`nosini topishni talab qilish muammoli vaziyat yaratish imkonini beradi. Masalan, o`quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o`nlab, hatto yuzlab uyadoshlari borki, o`qituvchi umumiy ma`noli so`zni o`quvchilar hukmiga havola etadi va (zaruriyat bo`lsa, unga bitta namuna ko`rsatadi) qolgan so`zlarni topishni o`quvchilarga topshiradi. Shuningdek, muammoli vaziyat yaratishning yana bir usuli sifatida ramziy tasvirlardan ham foydalanish mumkin. Bunda o`quvchilar rasmlarga qarab biror matn hosil qilishlari mumkin.

Quyida biz ijodiy topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

1. Rasmlardagi narsa-buyumlarni nomlang, ularni daftaringizga yozing.

2. Boshlanish qismi berilgan matnni davom ettiring.

3. Berilgan matnni o`qing. Tushunganingizni o`z so`zlariningiz bilan gapirib bering.

Biz darslarni imkon qadar samarali tashkil eta olar ekanmiz, ertangi kunimizda yetuk saviyali



kelajakning yetishib chiqishiga zamin hozirlagan bo`lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Barkamol-avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. // Barkamol avlod orzusi. Toshkent: “Sharq” nashriyot –matbaa konserni bosh tahririyati, 1999. B. 8-30
2. I.N Kudryashev. Diskussiya okanchanii// literature v shkole. 1997. No` 7, st-27



## РКИ СЕГОДНЯ: НОВЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ

**Полвонова Дилором Худойдотовна**

Учитель общеобразовательной школы №50

Тайлакского района Самаркандский области,

Телефон: +998(90) 619 59 51 Dilirompolvonova7gmail.com

**Аннотация:** В данной статье показана роль информационно-коммуникативных технологий на уроках русского языка и литературы.

**Ключевые слова:** обучение, урок, информационно-коммуникативные технологии, визуализация, облака слов, лента времени.

В наше время уже немыслимо представить жизнь без компьютерной техники, информационных технологий, интернета, сотовой телефонной связи. Информационно – коммуникативные технологии стали мощным инструментом, создающим новые возможности для повышения качества образования.

Образование является неотъемлемой частью социальной сферы жизни общества. От успехов образования во многом зависят и экономика, и правовое сознание, и нравственный облик общества. Сейчас с уверенностью можем констатировать тот факт, что создана методологическая основа всех наук, в том числе педагогики, психологии, методики преподавания русского языка и литературы, успешно используются новые информационные и педагогические технологии.

Подрастающее поколение стремится познать все секреты науки и техники. Современная молодёжь особенно старается изучать иностранные языки. Это возлагает на нас, учителей иностранных языков, большую ответственность. Теперь учитель иностранного языка должен использовать на своих уроках современные методики и передовые технологии. Современное обновление содержания и структуры образования требует внесения системных изменений в организацию учебного процесса, в цели и способы достижения нового качества образования. Развитие современного образования неразрывно связано с информатизацией общества. В настоящее время без использования интернет ресурсов трудно представить себе эффективную деятельность педагога, и использование всех сервисов для обучения, развития учащихся напрямую зависит от целей и задач, которые ставит перед собой и учениками педагог. Большое значение приобретает использование интерактивных и информационно – коммуникативных технологий. Использование интернет – сервисов на уроке и внеурочной деятельности значительно повышает информационные и организационные компетенции учителя и позволяет создать развивающую образовательную среду, делает обычный урок современным и интерактивным.

Сегодня методику преподавания русского языка можно представить как методику преподавания русского языка как родного, методику русского языка в нерусской школе и как методику преподавания русского языка как иностранного (РКИ). Не смотря на то, что эти отрасли объединены одним предметом, они имеют множество различий. Использование «визуализацию» позволяет сделать эти три типа урока русского языка продуктивнее, выполнение заданий интереснее, а совместную работу творческой.

Визуализация – представление информации или физического явления в виде, удобном для зрительного наблюдения и анализа. Визуализация объяснительного материала является инструментом преподавателя на этапе предъявления новой учебной информации (например презентации, плакаты). Визуализация учебно–тренировочного материала, при работе с которым развиваются коммуникативно–речевые навыки и умения учащихся. Слово «визуализация» происходит от латинского visualis — воспринимаемый зрительно, наглядный. В педагогике данное понятие реализуется под названием одного из традиционных педагогических принципов — принципа наглядности. Необходимость визуализации информации на современном уроке языка и литературы обуславливается еще и тем, что у нынешних учащихся, живущих в информационном обществе, формируется так называемое «клиповое мышление», т. е. способность воспринимать мир через короткие яркие образы и послания. Использование на уроке различных средств и приемов визуализации делает



урок более информативным и эффективным, так как позволяет максимально задействовать различные каналы восприятия информации обучающихся. Существует большое разнообразие традиционных способов визуализации урока языка и литературы: опорные конспекты, схемы, таблицы, планы, развернутые вопросы и ответы, презентации, видеоролики, фрагменты кинофильмов, тренажеры и др. Однако сегодня с развитием компьютерных технологий появляются и новые средства визуализации — инфографика, интеллект-карты, облако слов, лента времени, коллаж, различные интерактивные задания, основанные на визуальном ряде (например, большинство заданий в Learning Apps), интерактивные презентации и др. Задачи визуализации — представить и структурировать основной учебный материал; дополнить основной материал; обеспечить логичность в изложении информации; продемонстрировать взаимосвязь между текстом и графическими изображениями, способствующими активному восприятию учебного материала. Рассмотрим некоторые современные средства визуализации урока. Облако слов — это визуальное представление списка категорий или тегов, также называемых метками, ярлыками, ключевыми словами и т.п. Облако слов на сайтах устроено по принципу гиперссылок, где слово имеет тем больший размер в облаке, чем чаще оно встречается на сайте. Встречаются облака, в которых важность слова подчеркивается цветом. Таким образом, на сайтах облако слов всегда подвижно и изменяется в размерах и по цвету по мере публикации новых материалов на сайте. Однако сегодня область применения облака слов изменилась. Во-первых, словами, из которых формируется облако, теперь могут быть не только гиперссылки. Можно взять любой текст и с помощью специальных программных средств превратить его в облако слов. Во-вторых, облака слов нашли применение во многих других сферах, в том числе в сфере образования. Каким образом учитель языка и литературы может использовать облака слов в своей работе? Существуют различные способы:

как дидактический материал на уроках (в электронном виде или распечатанный на принтере);

для создания ярких, запоминающихся продуктов (открытки, информационно-рекламные буклеты, бюллетени, презентации);

для акцентирования внимания на важных датах, событиях, ключевых моментах (при обобщении опыта, в аналитических материалах, в презентациях и т.п.);

как визуализацию критериев оценивания чего-либо;

для представления результатов опроса или обсуждения и др.

Приведём несколько конкретных примеров использования облака слов учителями на уроках русского языка и литературы:

задание «Сформулируй тему урока» — в облако включить слова по теме урока либо из формулировки темы урока, которую учащиеся должны определить;

задание «Угадай автора и название произведения» — в облако в этом случае могут быть включены слова, называющие героев произведения, место происшествя и любые другие признаки, позволяющие распознать текст;

задание «Собери имена героев» — учащимся предлагается самим составить облако, где будут использованы имена героев нескольких последних произведений либо одного крупного произведения, можно добавить лишних персонажей для исключения;

задание «Облако эмоций» — собрать в облако слова, которые раскрывают, какие чувства испытывает автор либо герой произведения;

задание «Собери стихотворение» — слова из небольшого по размеру стихотворения, по которым учащиеся должны воссоздать полный текст;

задание «Угадай пословицу (поговорку и т.п.)» — дается большинство слов из пословицы, несколько пропущено;

задание «Словарные слова» — можно использовать различные вариации данного задания: облако из одного словарного слова; облако из словарных слов в рамках одной изученной темы; облако из слов, изученных за год, и т.д.;

«Лента времени» (англ. timeline) — это временная шкала, на которую в хронологической последовательности наносятся события. Чаще всего лента времени представляет собой горизонтальную линию с разметкой по годам (или периодам) с указанием, что происходило в то или иное время. Таким образом можно получить визуальную картинку о том, как в хронологии развивалось какое-либо событие. Современные сервисы позволяют «нанизывать» на ленту времени не только текст, но и изображения, видео и звук. Кроме того, фрагмент



текста или картинку можно оформить как гиперссылку на сторонний ресурс в Интернете, в котором событие раскрывается более подробно. Лента времени идеально подходит для организации образовательного процесса по самым различным школьным предметам, хотя традиционно ассоциируется только с уроком истории. Тем не менее, использовать ленту времени можно на любых уроках, например, литературы. Единственным условием для этого является наличие в содержании изучаемого материала какой-либо хронологии. Так, на уроках литературы в виде ленты времени можно представить жизненный путь изучаемых писателей и поэтов, развитие литературного процесса на протяжении определенного отрезка времени, развитие литературного персонажа, если в произведении его характер раскрывается на достаточно продолжительном временном отрезке и т.п. Лента времени на уроке литературы позволяет активизировать межпредметные связи, когда, например, на представленный на ленте жизненный путь писателя добавляются значимые исторические события, повлиявшие на его творчество, события из мира музыки, живописи, архитектуры, а также можно добавить важные научные открытия, пришедшиеся на тот или иной период. Благодаря таким вариантам использования ленты времени, у учащихся будет складываться целостная картина мира, а не фрагментарные знания в различных областях.

Визуализация в обучении помогает учителю провести урок интересным и познавательным.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. ЖукОВА Т.Н. Роль визуализации в школьном образовании // Санкт Петербургский образовательный вестник. Выпуск № 1 (1), 2016. – с. 63 – 71.
2. <https://www.1urok.ru/categories/10/articles/29527>[Калинкина 2020 1-2]
3. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/179868/>[ Рощина 2017 2-5]



## ОЛАМНИНГ БАДИИЙ МАНЗАРАСИ ВА УНДА АССОЦИАТИВ БИРЛИКЛАРНИНГ ЎРНИ

Раҳмонов Ҳусанбой Абжалил ўғли  
Қўқон давлат педагогика институти  
Мустакил тадқиқотчиси

**Аннотация:** Мазкур мақолада оламнинг бадиий манзараси образли ифодалар, метафорик бирликлар орқали юзага чиқиши курсатилган. Омон Матжон ижодидан мисоллар олиб изоҳланган.

**Калит сўзлар:** Ассоциатив бирликлар, концепт, индивидуал услуб, когнитив метафора, стимул, бадиий концептлар, миллий манзара, бадиий манзара.

Ассоциатив бирликлар инсон тасаввурлари, қарашлари, ташқи оламга муносабати, ҳиссиётлари билан боғланганлиги сабабли кўпинча миллий хосланганлик белгисига эга бўлади. Бу жиҳатдан айтиш мумкинки, ассоциатив бирликлар нафақат олам манзараси, балки оламнинг миллий манзарасини яратишда муҳим ўрин тутувчи бирликлар саналади. Ассоциатив бирликлар бадиий матнда миллий-маданий концептларни ифодалашда қўлланганда олам манзараси *оламнинг миллий манзараси* тусини олади.

Д.Лутфуллаева ҳам ассоциатив бирликларнинг миллий-маданий белгига эғалигини таъкидлайди. У бадиий матнларда қўлланган вербал ассоциациялар воқеликни акс эттирувчи шунчаки тил бирлиги ёки уларнинг воқелик ҳақидаги билими, ассоциатив тафаккури ифодаси бўлиб қолмай, миллий-маданий қадриятлар ҳақида маълумот берувчи бирликлар эканлигини асослаб беради. Жумладан, Алишер Навоийнинг “Турмади кўзумда етқач ул сарви баланд, Бўлмас киши фарзанди кишига фарзанд. («Бадойиъ ул-бидоя») байтида қўлланган “Бўлмас киши фарзанди кишига фарзанд” жумласи халқимизнинг бугунги кундаги “Бировнинг фарзанди бировга фарзанд бўлмайди” ҳикматини ёдга тушириши, бу ҳикматнинг байтда қўлланган вариантида фарзанд лексемасининг ассоциацияси сифатида шоир хотирасида тикланганлигини таъкидлайди.

Оламнинг бадиий манзарасини яратишда ассоциатив боғланган бирликлар муҳим роль ўйнайди. Бундай бирликлар кўпинча образли ифодалар, метафорик мазмунли кўчимлардан ташкил топади. Демак, бадиий матннинг яратилишида шунчаки лексик бирликлар эмас, балки ижодкор ассоциацияларига асосланган образли бирликлар қатнашади. Бундай ассоциатив бирликлар ижодкорнинг индивидуал услуби, лисоний қобилиятини намоён қилади.

Қуйида О.Матжоннинг ҚОР концепти ўз ифодасини топган сарлавҳасиз матннинг ассоциатив структурасини таҳлил қиламиз.

*Ер оқарди. Ухлаётган қушининг қанотларини босиб олгандагидай ғалати товушлар чиқади қадамлардан. Бу оқликни кимдир қор деб тушунди. Томлар, йўлакларни тозалашга киришди. Кимлардир ундан «бобо» ясай бошлашди: калласига кўҳна челак, кўзига кўмир, кўлига чўлтоқ супурги раво кўришди... Сўнг унуттишди.*

*Қор! Оқлик! У менинг назаримда кумушранг қанотларини бутун борлиққа ёйганча эркаланиб ётган оқ каптарга ўхшарди. Унинг эркин ва хотиржам парвоз билан яна самога, қуёшга томон кўтарилиб кетишига ишонар, оппоқ парларига нималарнидир ёзиб қолгим келарди.*

Ушбу матн тавсифий-муносабат характеридаги матн бўлиб, унда қор ёққандан кейин амалга ошириладиган ишлар, қорбобо ясаш тасвири акс этган ҳамда муаллифда қор билан боғлиқ ҳолда юзага келган истак-хоҳиш ўз ифодасини топган. Матнда қорнинг оқ каптарга ўхшатилиши тасвири *Қор – оқ каптар* тузилишидаги когнитив метафорада акс этган. Бундай ўхшатишга асосланган ассоциация матнга метафорик мазмун касб этган.

Ушбу матнда қор стимулсўзиганисбатан куйидаги ассоциацияларнинг актуаллашганлигини кўрамиз: *ер оқармоқ, қадамлардан ғалати товушлар чиқмоқ, оқлик (2), қор (2), томлар, йўлакларни тозалаш, ундан (қордан) «бобо» ясамоқ, кўҳна челак, кўмир, чўлтоқ супурги, кумушранг қанотларини ёйганча эркаланиб ётган оқ каптар, эркин ва хотиржам парвоз, самога, қуёшга томон кўтарилмоқ, Оппоқ парларига нималарнидир ёзиб қолгим келарди.*

Мазкур бирликлар муаллиф тасаввурида тикланган ассоциациялар бўлиб, Қор



концептининг тасвири учун хизмат қилган. Ассоциатив бирликлар муаллиф тасавурида тикланган мазмуний образ ҳамда унинг истак-хоҳишини акс эттиришга хизмат қилган. Жумладан, матнда қўлланган қуйидаги ассоциатив бирликлар қорнинг белги-хусусиятини ифодалашга хизмат қилган: *оқлик (2), ундан (қордан) “бобо” ясамоқ, кумушранг қанотларини ёйганча эркаланиб ётган оқ каптар.*

Матнда *оқлик* ассоциатив бирлиги 2 марта такрорланган, у орқали муаллиф қорнинг оқлик рамзи эканлигига ишора қилган. *Ундан “бобо” ясамоқ* ассоциацияси эса болаларнинг қордан қорбобо ясаши эпизодини ёдга туширган. Бу ассоциация қордан яшаш мумкин бўлган нарсаларга аниқлик киритишга хизмат қилади. *Кумушранг қанотларини ёйганча эркаланиб ётган оқ каптар* мураккаб сўз бирикмаси қорни кумушранг қанотли каптарга ўхшатиш натижасида ҳосил бўлган ассоциация ҳисобланади.

Қор ёққандан кейинги ҳолат тасвири қуйидаги ассоциациялар орқали ифода этилган: *ер оқармоқ, қадамлардан галати товушлар чиқмоқ.*

Қор ёққанидан сўнг амалга ошириладиган тозалаш ишлари матнда *томлар, йўлақларни тозаласмоқ* ассоциацияси орқали ёритилган.

Матнда қўлланган *кўҳна челақ, кўмир, чўлтоқ сунурги* ассоциатив бирликлари *қорбобо* сўзига нисбатан ҳосил бўлган, *қор* сўзи билан эса билвосита боғланган ассоциациялар ҳисобланади.

Матнда ажратилган *эркин ва хотиржам парвоз, самога, қуёшга томон кўтарилмоқ, Оптоқ парларига нималарнидир ёзиб қолгим келарди* ассоциациялари билвосита ассоциациялар ҳисобланади. *Эркин ва хотиржам парвоз, самога, қуёшга томон кўтарилмоқ* бирликлари қорга ўхшатишга оқ каптарга нисбатан ҳосил бўлган ассоциациялардир. *Оптоқ парларига нималарнидир ёзиб қолгим келарди* ассоциацияси эса ушбу каптар – қорга нисбатан муаллифнинг истак-хоҳишини ифодалаб келган.

Кўринадик, ҚОР концепти ифодаланган ушбу матннинг таянч қурилиш бирликлари ассоциатив бирликлардир. Улар матнни семантик-синтактик жиҳатдан шакллантириш билан бирга, оламнинг кичик бир фрагменти бўлган ҚОР концептининг миллий тасвирини яратишга хизмат қилган. Бу ўринда айтиш жоизки, бадий асар тилини тадқиқ этишда унда тасвирланган олам бадий манзарасини таҳлил қилиш ижодкор лисоний шахсига ҳаққоний баҳо беришга хизмат қилади. Чунки ижодкор асарлари тилини “оламнинг лисоний манзараси” нуқтаи назаридан ўрганиш тил тадқиқига ёндашувни систем-структур тизим доирасидан ташқарига чиқариб, уни инсон омили билан боғлиқ ҳолда ўрганиш заруратини юзага келтиради. Асар тилини бу аспектда ўрганиш ижодкор лисоний шахсига тавсиф беришда, унинг оламни қандай идрок этиши, унга муносабати, ташқи олам фрагментлари ҳақидаги тасаввур ва билимларини аниқлашда муҳим аҳамият касб этади. Матнда қўлланган ассоциатив бирликлар таҳлили орқали ижодкорнинг поэтик дунёси, ижодининг индивидуал қирралари ҳақида тасаввурга эга бўлиш мумкин бўлади.

Хуллас, оламнинг бадий манзарасини яратишда ассоциатив бирликлар таянч бирликлар вазифасини ўтайди. Онда шаклланган бадий концептларнинг матнга кўчирилишида бири-бири билан ассоциатив боғланган тил бирликлари муҳим роль ўйнайди. Бундай бирликлар бадий матннинг индивидуаллигини, маданийлигини, таъсир кучини таъминловчи тилнинг махсус бирликлари ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Лутфуллаева Д Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.
2. Сафаров Ш. Таржимоннинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти // Хорижий филология. 2018.
3. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2015.
4. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С.51.



РУС ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ҒОЯЛАР ХАМДА ХАЛҚАРО  
ТАЖРИБАЛАР

**Отабоева Сурайё Рустам қизи**

Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 38-сон

мактаби рус тили фани ўқитувчиси

Тел + 99-894-312-64-63

[surayyootabayeva93@gmail.com](mailto:surayyootabayeva93@gmail.com)

**Аннотация:** Ушбу мақола ёш ўқитувчилар учун рус тилини ўқитишда самарали натижага эришишга ёрдам беради. Бундан ташқари, халқаро тажрибалар асосида амалга оширилган кузатишлар натижасидир. Янги инновацион технологияларни ўринли қўллаш, ўқувчилар билан қандай ишлаш, технологиялардан вақт тақсимотига кўра тўғри фойдаланиш лозимлиги ҳақида тушунчалар беради.

**Калит сўзлар:** Методлар, муаммоли вазият, таълим, дарс жараени.

Ҳозирги вақтда таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий методлари кенг қўлланилмоқда. Ўқитишнинг замонавий методларини қўллаш ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эришишга олиб келади. Таълим методларини танлашда ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ саналади.

Маълумки, нутқ жараёнида лексик, грамматик ва талаффуз кўникмалари бир бутун ҳолда намоен бўлади. Нутқда грамматик шаклларнинг етарли даражада тезкорлик билан тўғри қўлланиши лексик кўникмаларнинг қанчалик шаклланганига, яъни сўзловчининг ўзига керакли сўзларни тез ва тўғри танлай билишига боғлиқ. Бироқ шуни унутмаслик керакки, ҳар қандай гап нутқ жараёнида муайян услубга хос меъёрий талаблардан келиб чиқиб тузилади. Шунинг учун ҳар бир тил бир тилда айнан бир фикрни турли синтактик тузилмалар воситасида турлича ифода қилиш имконияти ҳам мавжуд.

Рус тилини ўқитишда қиёсий грамматикадан ҳам кенг фойдаланиш зарур. Бунда ўзбек ва рус тилларидаги халқ мақоллари ҳам тил ўрганишда жуда қўл келади.

“Мен бошладим, сен давом эттир” усули ҳам рус тилини ўзлаштиришда муҳим аҳамиятга эга. Бунда ҳар бир гуруҳдан 2 кишидан чиқиб, олдиндан ёзилган сўзларни давом эттиради. Машқ бажариш учун 3 дақиқа вақт берилади. Вақт тақсимотига амал қилиш лозим. Синф жамоасини тўғри тақсимлаш зарур. Қолган ўқувчилар билан “Саволга тескари жавоб” усулидан ҳам фойдаланиш яхши самара беради. Бу усул шартига кўра ўқитувчи айтган фикрга тўғри бўлса “Йўқ”, хато бўлса “Ҳа” деб жавоб беришлари керак бўлади.

Тилни ўзлаштиришда тил қурилишини билиш шарт. Шунини айтиб ўтиш лозимки, айтилиши бирликларидан қандай фойдаланиш, уларни нутқда бевосита қандай қўллаш масаласи шаклланмаган бўлса, тилни билиш мукамал эмас. Тил таълимида ҳар бир дарсдан кутиладиган натижа ўқувчиларга берилаётган назарий билимларни амалий қўллаш кўникмаларини ҳосил қилиб бориш ҳамда уларнинг оғзаки ва ёзма нутқ малакасини шаклланишига қаратилиши шарт. Бунинг учун ўқувчиларнинг мустақил фикрлашини ривожлантириш, уларни нафақат ўрганилган нутқий конструкцияларни қўллай олишга, балки анологик бирикмалар тузиш орқали ўз фикрини мустақил ифодалашга ўргатиб бориш ҳам зарур бўлади. Шу боис тил таълимида тўрт асосий амал: тинглаб тушуниш, ўқиш, сўзлаш машқларини биргаликда ҳар бир дарс жараёнига тенг тақсимланган тарзда тадбиқ этиш тақозо этилади.

Рус тилини ўқитишда тил материалларини тақсимлаш жиддий ёндашувни талаб этади ва бунда ҳар бир таълим босқичи хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда турли тамойиллардан фойдаланиш керак бўлади. Луғавий сўз захираси жамланади. Дарс жараёнларида луғат билан ишлаш самарали натижаларни беради.

Расмлар орқали хотирани мустаҳкамлаш мумкин. Бунда “Кимнинг хотираси кучли?”, “Муаллифни топ!”, “Топсанг сенга, топмасанг сенга”, “Кластер”, “Глабинго!” каби усуллардан фойдаланилса, кўзланган натижага эришилади. Айниқса, “Сўз топиш ва унинг ҳаракатини айтиш” ўйинида бир ўқувчи сўз айтади, ёнидаги партадоши сўзнинг ҳаракатини айтади.

Уйга вазифа беришда ҳам бажарилиши лозим бўлган вазифадан ташқари ўзбек ва



рус тилларидаги мақол ва ибораларни ёд олиб бориш, шеър, мақола ёзиш машқи бериб борилса, мақсадга мувофиқдир. Ўқувчилар ёшлари ҳам назарда тутган ҳолда уй вазифаси берилади. Шунинг учун керакки, танланган инновацион технологиялар вақт ва ёшлар ҳисобга олган ҳолда қўлланиши лозим. Доимо вазифа берилгандан сўнг рус тилига оид мақол, шеър, буюк шахсларнинг сўзларидан мисоллар келтирилса, рус тилига бўлган эътибор янада кучаяди, кизиқиш ортади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Азизхужаев. Н.Н. Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997



ONA TILI DARSLARIDA LEKSIKOLOGIYAGA OID BILIMLARNING  
O‘QITILISHINING AHAMIYATI

**Islomova Oygul Abdujabborovna**

Xovos tuman 7-maktab ona tili va  
adabiyot fani o‘qituvchisi.  
xov7maktab@umail.uz

**Hasanova Gavhar Abdunazarovna**

Xovos tuman 7-maktab ona tili va  
adabiyot fani o‘qituvchisi.  
xov7maktab@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umum ta’lim maktablarida leksikologiya bo‘limining o‘qitilish ahamiyati haqida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ona tili, uzluksiz ta’lim, leksikologiya, bir va ko‘p ma’noli so‘z, og‘zaki va yozma nutq, paronim, kamiste‘mol va seriste‘mol so‘z.

*“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”*

*Sh.M.Mirziyoyev.*

Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo‘lmish ona tili ta’limi uzluksiz ta’lim tizimida yetakchi o‘quv fanlaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ona tilimizning ana shu jihatiga alohida urg‘u bergan: “Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.

“Ona tili – bu millatning ruhidir”. Shu bois ona tili ta’limi samaradorligini oshirish davlat siyosatiga aylandi. Umumta’lim maktablarining ona tili darslarida “Leksikologiya” bo‘limini izchil kurs sifatida o‘qitish juda katta ta’limiy ahamiyatga ega. Bu bo‘limni o‘qitishning ta’limiy ahamiyati shundaki, o‘quvchilar tilning asosiy birligi – so‘z haqidagi ta’limot bilan tanishadilar va ularning tilni bir butun tizim sifatida tushunishlari hamda o‘zlashtirishlariga imkon tug‘iladi.

Leksikologiyani o‘rganish jarayonida so‘zning grammatik hamda lug‘aviy, o‘z va ko‘chma ma’nolari, bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’no ko‘chish usullari, ma’nodosh, uyadosh, zid ma’noli, shakldosh, talaffuzi yaqin, ma’nosi farq qiluvchi paronim so‘zlar, umumxalq ko‘p ishlatadigan va kam ishlatadigan so‘zlar, tarixiy, shevaga oid, yangi paydo bo‘lgan va eskirgan, kasb-hunarga oid so‘zlar, istilohlar, ibora va tasviriy ifodalar kabi hodisalar bilan tanishiladi. O‘quvchilar nutqining go‘zalligi, izchilligi, ta’sirchanligi asosan ularning lug‘at boyligi bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich sinflarda, yuqori sinflarda, akademik litsey va kasb-hunar maktablarigacha bo‘lgan davrda o‘quvchilar o‘rganadigan so‘zlar lug‘ati kengaytirib boriladi. Bunda bir qancha xususiyatlar e’tiborga olinadi.

Xususan:

1) so‘zlarning amaliy ahamiyati, ya’ni butun ta’lim jarayoni uchun ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar;

2) so‘zlarning amaliyotda qo‘llanish darajasi, uning muntazam yoxud alohida holatlardagina qo‘llanishi;

3) so‘z ma’nosining to‘la tushunilishi, o‘rinli va nutqiy vaziyatga mos ravishda ishlatilishi nazarda tutiladi.

Maktabda “Leksikologiya” bo‘limini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad:

o‘quvchilarni o‘zbek adabiy tilining so‘z xazinasiga olib kirish, ularning so‘z zaxirasini oshirish, so‘zdan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanish malakalarini rivojlantirishdan iboratdir. “Leksikologiya”



bo‘limini o‘rganishda so‘zning ma‘no qirralarini tushunish, o‘quvchilar nutqidagi kamiste‘mol so‘zlarni seriste‘mol so‘zlarga aylantirish, ularning lug‘at zaxirasini yangi so‘zlar bilan boyitish, o‘quvchilarda amaliy-stilistik malakalarni takomillashtirish, nutq uslublarini farqlashga, ayni bir narsa, voqea-hodisani oddiy, badiiy va ilmiy uslublarda bayon qilishga o‘rgatish, nutq sharoitiga mos ravishda so‘z tanlash malakalarini kengaytirish, ularda turli izohli lug‘atlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish vazifalari hal qilinadi.

“Ona tili” kursining barcha sathlari qatori “Leksikologiya” bo‘limini o‘qitishda ham o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqi ustida ishlash ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi. Mazkur bo‘limda o‘quvchilar duch keladigan birinchi muammo so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolaridir. Berilgan so‘z birikmalarini (masalan, *oltin haykal – oltin boshqoq; temir yo‘l – temir odam – temir xotira*) o‘z va ko‘chma ma‘nosiga ko‘ra guruhlariga ajratish, ularni o‘zaro qiyoslash asosida so‘zni o‘z va ko‘chma ma‘nolarda qo‘llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil qilish, so‘zlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llab matn yaratish singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. “Ma‘nodosh so‘zlar” mavzusini o‘rganishda berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan so‘zlarni ularning ma‘nodoshi bilan almashtirish, gapdagi so‘zlarni birin-ketin ma‘nodoshi bilan almashtirib, ma‘no farqlarini izohlash, berilgan ma‘nodosh so‘zlarni ijobiy va salbiy bo‘yoqli so‘zlarga ajratish, murojaat so‘z birikmalari hosil qilish (masalan, *mo‘tabar murabbiyim, muhtaram ustozim, mehribon tarbiyachim, hurmatli muallimim* va h.k) qarindosh-urug‘chilikka oid so‘zlarni (masalan, *akajon, opajon, otajon* va h.k) , qarindosh-urug‘ bo‘lmagan kishilarga nisbatan qo‘llab matn yaratish, oddiy va ko‘tarinki ma‘noli so‘zlardan foydalanib matn tuzish singari amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Quyida topshiriqlardan namunalar beramiz:

*1-topshiriq. Berilgan so‘zlarni ma‘no yaqinligiga ko‘ra juftlarga ajrating, ular orasidagi ma‘no yaqinligini aniqang.*

Avlod, aybdor, yolg‘onchi, sababchi, beqaror, adlashmoq, aldoqchi, va‘dalashmoq, betayin, yolg‘on, vatan, yorqin, diyor, yolg‘iz.

*2-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan so‘zlarni qavsda berilgan so‘zlar bilan almashtirib, ma‘no farqlarini tushuntiring.*

1. Bola vazifani tez tushundi( fahmladi, angladi, uqdi).

2. Pulni behuda sarflamang ( sarf qilmang, xarajatlamang, xarj qilmang ).

“Ma‘nodosh so‘zlar” ustida olib boriladigan ijodiy-amaliy ishlar o‘yin tarzida tashkil etilsa, o‘quvchilarning bu topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish darajasi behad ortadi hamda o‘rganilayotgan til hodisalarini fahmlash imkoniyatlari yanada yuqoriroq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumta‘lim maktablarining ona tili darslarida leksikologiyaga oid bilimlarning o‘qitilishi umuman o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqining o‘sishida, so‘zdan o‘rinli va unumli foydalana olishida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari (I qism). Toshkent- 2015

2. Ochil Roziqov, Mels Mahmudov, Baxtiyor Adizov, Alijon Hamroyev. Ona tili didaktikasi. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2005.

3. Internet ma‘lumotlar



## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI RUS TILI FANIGA O‘RGATISHNING INTERFAOL METODALARI

**Nokiyeva Bibijon,**

Xorazm viloyati Shovot tumani  
30-maktab rus tili fani o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** ushbu maqola muallif boshlang‘ich sinfo‘quvchilarini rus tili faniga o‘rgatishning interfaol metodlar yordamida amalga oshirilishiga ahamiyat qaratgan*

***Kalit so‘zlar:** individual, rus tili o‘qitish metodikasi, interfaol, an’anaviy ta’lim, noan’anaviy ta’lim*

An’anaviy ta’lim bilan bir qatorda noan’anaviy, ya’ni zamonaviy interfaol metodlarning ta’lim jarayoniga kirib kelishida sog‘lom fikrli va yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan, mustaqil fikrli shaxsnitarbiyalash maqsad qilib belgilangan. Interfaol metodlar bir qator afzalliklarga ega . Bunda o‘quvchiga mustaqil fikrlashga , o‘z shaxsiy qarashlarini erkin bayon qilishga imkoniyat beriladi. Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlarda biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat . Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar .

Xo‘sh , boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan rus tilini o‘rgatish jarayonida qanday metodlardan foydalanish samaraliroq , deb o‘ylaysiz?

Bola uchun begona tilni o‘rganish jarayoni oson kechmaydi albatta. Bu jarayonda pedagogdan kuchli bilim, tajriba va kreativlik talab qilinadi . Avvalo, o‘quvchi rus tilidagi harflarni yaxshi tanishi va talaffuz eta olishi juda muhim. Bu til o‘rganishga qo‘yilgan birinchi qadam hisoblanadi. Bolalar nutqini rus tiliga moslashtirish orqali sekin-asta ularning bu tilda bilan qiziqishlarini orttib boramiz. Masalan, sinf xonadagi jihozlar nomini rangli qog‘ozlarga ruscha tarjimasini yozib yopishtirib chiqish kerak. Devor, eshik, deraza, gilamcha, yozuv taxtasi, chiroq va hokazolar. O‘quvchi har gal xonaga rangli qog‘ozdagi shakllarga beixtiyor qaraydi va undagi yozuvni o‘qiydi. Natijada takrorlash natijasida o‘quvchi eng oddiy so‘zlarni o‘zlashtra boshlaydi. O‘quvchilarni bir-biri bilan oddiy diplomlar tuzishga odatlantring. Muloqot jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyliklari oshib boradi. Muloqot madaniyatini o‘rganadi. Bu jarayon o‘quvchilar bilimini kuchaytirib, til o‘rganiahga bo‘lgan ishtiyoqini oshirib boradi.

O‘quvchilar bilan birga turli xil qo‘shiqqlar tinglash metodi ham yaxshigina samara beradi. Ham musiqiy dam olish, ham musiqa sadolari ostidan yangrayotgan qo‘shiq so‘zlarini aytish orqali ularning kayfiyati ko‘tarilib, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib boradi. Oddiy rus kinolarini ko‘rishni ham tavsiya etgan bo‘lardik. O‘quvchi rus tili grammatikasini yaxshi bilishi, o‘rganishi mumkin. Lekin uning nutqi muloqot yordamida sayqallanib boradi, so‘z boyligi oshib, nutqiy savodxonlikka tez erishadi

Ish tajribadan kelib chiqib, shuni ham alohida aytib o‘tmoqchiman. O‘quvchiga darsning birinchi qismida takrorlanmas motivatsiya berish ham yaxshi samara beradi. Masalan, "Cho‘ntak xat" metodi. Bu metod darsning ilk daqiqalarida o‘tkaziladi. Dars boshlangan vaqtda o‘quvchilarning fikri tarqoq, kayfiyatlari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Shunda har bir o‘quvchi rus tilidagi ijobiy so‘zlarni oddiy qog‘ozga yozishi kerakligi aytiladi. Masalan "красивый", "умная", "удачи", "мечтат" kabi. So‘ng yozilgan bu xatlarni o‘quvchilar bir-birlari bilan alishadilar. Bu ham kun davomida ularga yaxshi kayfiyat ulashishi mumkin.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. **Barlos L.G. Rus tili. Stilistika. Moskva, 1998**
2. Gorbachevich K.S. Zamonaviy rus adabiy tili normalari. Moskva, 1990



ABUL QOSIM MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING SHARQ FILOLOGIYASIDAGI  
O’RNI

**Batirova Barno Aminovna**

Gurlan tumani 15-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 287 84 30

bb.aminovna\_15@inbox.uz

**Ernafasova Mukaddas Yuldashbayevna**

Gurlan tumani 15-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (94) 316 92 50

ernafasova.mukaddas\_15@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mahmud az - Zamaxshariyning hayoti, avlodlar uchun qoldirgan ilmiy merosi, tilshunoslikka oid asarlari hamda hozirgi kunda Mahmud az – Zamaxshariyning ilmey merosiga e‘tibor berilishiga oid ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Ustod ul-arab va-l ajam”, “Faxru Xvarazm”, “Al-Mufassal”, “Al-Kashshof”, “Al-Unmuzaj”, arab tili grammatikasi, lug‘atlar.

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az – Zamaxshariy musulmon sharqida “Ustod ul-arab va-l ajam” (Arablar va g‘ayri arablar ustoz), “Faxru Xvarazm” (Xorazm faxri) kabi sharafli nomlar bilan mashhur bo‘lgan o‘rta osiyolik allomalardan yana biri Mahmud az - Zamaxshariydir (1075-1143).

Mahmud az - Zamaxshariy Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida dunyoga keldi. Uning yoshlik yillari ilmu fan va madaniyat taraqqiy qilgan davrga to‘g‘ri keldi.

Zamaxshariylar oilasi dindor, hurmatga sazovor ziyoli oilalardan edi. Shunga ko‘ra u dastlabki bilimni Zamaxsharda-o‘z ota-onasidan oladi, xat-savodli bo‘ladi. Mahmud o‘z bilimni oshirish, ilm-fan bobida mukammal bo‘lish maqsadida Xorazmga (Urganchga, so‘ngra esa Buxoroga) yo‘l oladi. Ushbu shaharlardagi madrasalarda o‘zining ma‘naviy-ma‘rifiy saviyasini oshiradi. Bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Isfaxon, Bog‘dod, Makka, Marv, Nishopur, Shom, Hijoz va Iroq kabi ilm-fan, madaniyat taraqqiy qilgan shaharlarda bo‘ladi, yetuk allomalardan, olimu fozillardan ilm-fan sirlarini o‘rganadi, tinimsiz mehnat qiladi, doimiy izlanishda bo‘ladi. Shunga ko‘ra Mahmud az - Zamaxshariy o‘z zamonasining buyuk allomasiga, ilm-fan homiysiga, dong‘i ketgan mashhur kishisiga aylandi.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lug‘atshunoslik, jo‘g‘rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fikh va qiroat ilmiga oid 50 dan ortiq asar yaratdi, ko‘plab she‘rlar yozdi.

Mashhur tarixchi Ibn al-Qiftiy Mahmud Zamaxshariy haqida shunday deydi: “Xudo rahmat qilg‘ur az - Zamaxshariy ilmu adab, nahv va lug‘at bobida o‘zgalarga misol (namuna) bo‘ladigan alloma edi”, desa, Misr tarixchisi ibn Tag‘riberdi esa Mahmud Zamaxshariy “shayx, buyuk alloma, o‘z davrining yagonasi, o‘z asrining eng peshvosi va imomi bo‘lgan”, deydi.

Arab tili grammatikasiga oid Al-Mufassal 1119-1121 yillarda Makkada yozgan.

Asar arab tili nahvu sarfini o‘rganishda muhim dasturiy manba sifatida azaldan Sharqda ham, G‘arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi.

Ko‘pchilik olimlar o‘z ilmiy qiymati jihatidan Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (u 796 yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid mashhur kitobidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi, deb ta‘kidlaganlar. Bu asar o‘sha davrning o‘zidayoq arab xalqlari orasida katta e‘tibor qozonadi va arab tilini mukammal o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida keng tarqaldi. Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda- kim az – Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, uning besh ming kumush tanga va bosh oyoq sarupo sovg‘a in‘om qilishni va‘da bergan. Mahmud Zamaxshariyning “Asos ul-balog‘a” (Notiqlik asoslari asari asosan lug‘atshunoslikka bag‘ishlangan. Unda arab tilining fasohati va mukammaligi haqida so‘z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so‘zlar bilan ifodalash, so‘z boyligidan o‘rinli va ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat va balog‘at ilmlaridan yaxshi xabardor bo‘lishi kerak kerak edi. Buning uchun so‘zni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so‘zlash va yozish ham kerak bo‘lgan.

Bu asarda adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so‘z birikmalari va ularni amalda tatbiq etish yo‘llari chuqur tahlil etilgan.



Az-Zamaxshariy ijodining gultoji bo'lgan, ilm-fan olamida g'oyat keng tanilgan “Al-Kashshof” asari Qur’oni Karimga yozilgan mashhur tafsirdir. Asarning to’liq nomi “Al-Kashshof an haqiq it-tanziyl va uyun il-aqoviyl fi vujuh it-ta’viyl” (Kur’ondagi berk haqiqatlarni va uni sharhlash orqali rivoyatlar ko’zlarini ochg’ich) dir. “Al-Kashshof” az-Zamaxshariyning o’ziga ham g’oyat manzur bo’lgan. Hatto u o’z asari haqida shunday yozgan edi: “ Chindan ham dunyoda tafsirlar behad ko’pdir. O’lay agar, ularda “Kashshof” kabisi bo’lsa. Agar hidoyat izlasang, “Al-Kashshof” ni takror o’qi. Nodonlik bir kasal bo’lsa, “Al-Kashshof” uning shifosidir”.

Al-Unmuzaj fi-n-nahv arab bo’lmagan xalqlarga arab tilini osonroq , soddaroq tarzda o’rgatish uchun mo’ljallanganligi bois, xalq orasida shuhrat topgan, keng tarqalgan. Mazkur asar yordamida tolibi ilm arab tilining asosiy qoidalarini tezda o’rgangan. Asarda lo’nda izohlar qoidalar hamda ularni mustahkamlash uchun misollar berilgan.

Mahmud Zamaxshariyning yuksak pedagogik mahorati ushbu asarda o’z aksini yaqqol topgan. Tajribali arabshunos, marhum Abduhafiz Abdujabborov “Al Unmuzaj” asarini 2001 yilda nashrga tayyorlagan. Bu risoladan hozirgi kunda o’quvchilar o’quv qo’llanma sifatida foydalanmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. –T., 1971.
2. Uvatov U. Abu-l-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy // Donolardan saboqlar. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
3. Mahmud az-Zamaxshariy. Al-Unmuzaj / Nashrga tayyorlovchi, muqaddima va atamalar sharhi muallifi Abduhafiz Abdujabborov. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001. 80-b.



## PECULIARITIES OF GAMES IN ENGLISH LESSONS

**Bekchanova Manzura Qadambayevna**

Xorazm viloyati Urganch tumani

19- sonli maktab o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Making English lessons interesting for students by using simple game methods

**Kalit soʻzlar:** playing games, learning and practicing, vocabulary, communicative competence, language-building activities

While playing games, the learners' attention is on the message, not on the language. Rather than pay attention to the correctness of linguistic forms, most participants will do all they can to win. Games offer students a fun -filled and relaxing learning atmosphere. After learning and practicing new vocabulary, students have the opportunity to use language in a non-stressful way. This eases the fear of negative evaluation, the concern of being negatively judged in public, and which is one of the main factors inhibiting language learners from using the target language in front of other people. In a game-oriented context, anxiety is reduced and speech fluency is generated - thus communicative competence is achieved.

This provides valuable impetus to a purposeful use of language. In other words, these activities create a meaningful context for language use. Games are also motivating. Games introduce an element of competition into language-building activities. The competitive ambiance also makes learners concentrate and think intensively during the learning process, which enhances unconscious acquisition of inputs. Most students who have experienced game-oriented activities hold positive attitudes towards them. Students said that they liked the relaxed atmosphere, the competitiveness, and the motivation that games brought to the classroom. On the effectiveness of games, we reported that action research reported that their students seem to learn more quickly and retain the learned materials better in a stress -free and comfortable environment. The benefits of using games in language-learning can be summed up in nine points .Games:

1. learner centered.
- promote communicative competence.
- create a meaningful context for language use.
- increase learning motivation.
- reduce learning anxiety.
- integrate various linguistic skills.
- encourage creative and spontaneous use of language.
- construct a cooperative learning environment.
- foster participatory attitudes of the students.

There are many advantages of using games in the classroom:

1. Games are a welcome break from the usual routine of the language class.
2. They are motivating and challenging.
3. Learning a language requires a great deal of effort. Games help students to make and sustain the effort of learning.
4. Games provide language practice in the various skills- speaking, writing, listening and reading.
5. They encourage students to interact and communicate.
6. They create a meaningful context for language use.'

Why Use Games in Class Time?

Games are fun and children like to play them. Through games children experiment, discover, and interact with their environment. Games add variation to a lesson and increase motivation by providing a plausible incentive to use the target language. For many children between four and twelve years old, especially the youngest, language learning will not be the key motivational factor. Games can provide this stimulus. The game context makes the foreign language immediately useful to the children. It brings the target language to life. The game makes the reasons for speaking plausible even to reluctant children. Through playing games, students can learn English the way children learn their mother tongue without being aware they are



studying; thus without stress, they can learn a lot.

Even shy students can participate positively.

How to Choose Games

A game must be more than just fun.

A game should involve "friendly" competition.

A game should keep all of the students involved and interested.

A game should encourage students to focus on the use of language rather than on the language itself. A game should give students a chance to learn, practice, or review specific language material. Cooperative learning activities are also motivating. These techniques have been found to increase the self-confidence of students, including weaker ones, because every participant in a cooperative task has an important role to play. Knowing that their teammates are counting on them can increase students' motivation. There are some examples of them which I have used in practice:

Inside – Outside Circle:

Step 1: The students work in teams on certain material.

Step 2: The students form two big circles on the floor, one inside the other. If,

for example, there are 6 teams of 4 students, 3 teams form the inner circle and the other 3 the outer circle. The inner circle looks outwards, the outer circle inwards. Each person in the inner circle has a partner in the outer circle. The students now exchange material or discuss with their partner. Step 3: The students in the outer circle (or inner circle) move 4 persons to the right (or left), so that everyone is now facing a new partner. Material is exchanged with the new partner.



## ОНА ТИЛИ О'QITUVCHISI VA ОНА ТИЛИ DARSIGA QO'YILADIGAN ИЛМИЙ PEDAGOGIK TALABLAR

Dusnazarova Nazokat Reyimberganovna  
Sultanova Zulfiya Sadullayevna

Xorazm Urganch tumani  
3 – maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ona tili o'qituvchisi va ona tili darsiga qo'yiladigan ilmiy pedagogik talablar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili o'qituvchisi, metodik qo'llanma, maorifchilar.

Ona tili o'qituvchisining ijtimoiy pedagogik qiyofasi. Ona tili o'qituvchisining namunali kasbiy tavsifnomasi. Ona tili o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan ma'naviy fazilatlar. O'qituvchining pedagogik va psixologik bilimlari. Ona tili o'qituvchisining ish o'rganish usullari hamda ona tili darsiga bo'lgan umumiy talablar.

O'rta umumta'lim maktablarida o'quv ishlarining asosiy qismini dars tashkil qiladi. Shuning uchun darsga doir fikrlarni kengroq bayon qilinadi. Dastlab, qo'shni davlatlardagi darslar haqida gi fikrlarga e'tibor tortiladi.

O'zbekiston mustaqil bo'lgandan so'ng uning chet davlatlar bilan bog'lanish, o'qitish borasidagi ish tajribalarini o'rganish imkoniyatlari tug'ildi. 1994 yil, 27 aprel, "Ma'rifat" gazetasida yozilishicha, AQSH maktablarida o'quv yili 180 kun ekan. Taqqoslang: O'zbekistonda 33 hafta, ya'ni 198 kun. Bir soatda dars 45-40 minut bo'ladi.

Angliyada ishlab kelgan ToshDUning o'qituvchisi Abdug'affor Normanovning ta'kidlashicha, u yerdagi dars vaqti 45 minutgacha ekan.

Janubiy Koreada bo'lib qaytgan bir guruh maorifchilar "Ma'rifat" (1995 yil, 20.XII)da yozilishicha, u yerda majburiy ta'lim 3 yoshdan boshlanarkan. Kichik yoshdagilarga mashg'ulotlar 20-30 daqiqa davom etadi. Katta yoshdagi o'quvchilarga 45 minutlik darslar 7-8 ta, shanba kunlari 4 soat dars olib boriladi. Har bir maktab o'z telestudiyasiga, har bir sinfxona zamonaviy texnik vositalariga ham ega.

Chet mamlakatlardagi maktablarning 40-60 foizini xususiy maktablar, ya'ni pullik maktablar tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasida esa dinidan, irqidan, millatidan qat'iy nazar tekin umumiy ta'lim olish kafolatlangan. Darslar Nizomda (1995 yil, 29 noyabrda "Ma'rifat") ta'kidlagandek, mutaxassislar tomonidan olib boriladi.

Davlat tilidan, ya'ni ona tilidan o'quvchilarga bilim, malaka, asosan, dars jarayonida beriladi. Bundan tashqari, o'quvchi o'zi mustaqil o'qib-o'rganishi ham mumkin. Lekin ona tili o'qitishning eng samarali va unumli shakli dars bo'lib, bir vaqtning o'zida o'qituvchi bir necha o'quvchi bilan ishlaydi va ma'lum bir mavzu bo'yicha ma'lumot beradi.

Odatda, katta mahorat bilan yozilgan asar o'quvchini zavqlantiradi. Ta'sirli o'tilgan dars ham o'quvchiga ijobiy ta'sir qiladi. Shu ma'noda ta'sirli o'tilgan darsni yaxshi badiiy asarga ham o'xshatiladi.

Dars o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining ko'zguvidir. Ona tili darslarida yuqori natijaga erishish uchun ham mo'ljallangan materialni ilmiy jihatdan yuksak saviyada o'tish, ham o'quvchilarni uyushtira bilish, ham ularning faolligini oshirish kerak. Shunga ko'ra har bir dars oldiga shunday talablar qo'yiladi:

- a) o'qituvchining rahbarligi;
- b) o'quvchiga ta'lim va tarbiya berish;
- v) o'quv ishlarini o'quvchilarning yoshiga qarab tashkil etish;
- g) to'g'ri o'qish, to'g'ri so'zlash, to'g'ri yozish malakasini oshirish.

Har bir darsning saviyasi o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlay olish mahoratiga bog'liq.

Darsni 4 ta katta tipga (turga) bo'lish mumkin:

1. Ona tilidan yangi bilimlar berish darsi.
2. O'tilganlarni mustahkamlash darsi.
3. Bilim va malakalarni tekshirish darsi.
4. Olingan bilimlarni umumlashtirish-takrorlash darsi.



Ona tili darslarini shu tarzda 4 ga bo'lish shartli. Chunki har bir dars faqat bilim berish yoki faqat takrorlashlarni ko'zda tutmaydi.

Bilimlarni tekshirish darsida o'tilganlarni mustahkamlash ham ko'zda tutilishi mumkin. Yangi bilim berish darsida hatto uzoq o'tilganlar eslanishi, takrorlanishi mumkin. Dars qat'iy jadval bo'yicha o'tkaziladigan 45 minutlik mashg'ulotdir. Unda muayyan o'quvchilar guruhi o'qituvchi rahbarligida ishlaydi. Albatta, bu tartib dars turiga, dars maqsadiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Metodik tomondan o'zini oqlagan, tajribada sinab ko'rilgan noanan'aviy darslar ham ona tili o'qitish metodikasining yutug'i hisoblanadi. 1993 yildan beri yil o'qituvchisi ko'riklari o'tkazib kelinadi. Respublika miqyosida fanlar uchun 14 ta o'rin ajratiladi. Shu o'rinlardan 1993 yilda 4 ta o'rinni, 1994 yilda 7 ta o'rinni, 1995 yilda 6 ta o'rinni til o'qituvchilari egalladi. Tasavvur qiling, maktablarda 16 dan 20 tagacha fan o'qitiladi. Respublikaga chiqish uchun mo'ljallangan ballga boshqa fan o'qituvchilariga qaraganda tilchilar ko'proq ega bo'lmoqdalarki, bu holat ular faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi. Bu raqamlarni aytishdan maqsad nima? Maqsad shuki, ma'lum vaqtdan so'ng bo'lgusipedagoglar ham ular izidan borishi, ularning yutuqlarini saqlab qolishi zarur. Chunki erishilgan yutuqlarni, qo'lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlarni nafaqat saqlab qolish, balki yanada ko'paytirish uchun harakatni hozirdan boshlash zarur.

**Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil
2. K.Usmonova. Uy vazifasi-dolzarb muammo. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2007 yil, 2-son, 77-80-betlar.
3. Z.Shopo'latov. Kasr sonlar. Ularning yasalishi. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2007 yil, 4-son, 7-10-betlar.



## YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ

**Eshchanova Munira Temur qizi**  
Xorazm viloyati Xiva tumani  
24 – maktab ijodiy madaniy  
masalalar bo‘yicha targ‘ibotchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mustaqilligimizning 31 yilligi munosabati bilan “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori asosida yurtimizda inson qadr qimmatini haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yangi islohotlar, inson qadri, huquq va erkinliklari.

Bugungi davrda “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan - yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Keyingi ikki yil davomida mamlakatimizda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli barcha jabhada tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, xalqimizning dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalmoqda. Jamiyatimizda yangicha qadriyat va an‘analalar shakllanmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekiston xalqparvar, insonparvar davlat sifatida tilga tusha boshladi. Bunga yurtimizda kam ta‘minlangan, nochor oilalarni qo‘llab – quvvatlash va kambag‘allikni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni misol qilib ko‘rsatsak, o‘rinli bo‘ladi. Yangi yil arafasida Mehribonlik uylarida tarbiyalangan bolalar davlat tomonidan yangi uylar bilan ta‘minlandi. Faol mahalla bu - katta tushuncha. Faollik faqat mahalla hududini, infratuzilmasini obod qilish emas, balki shu mahallada yashovchi aholini, keksa-yu yoshni jamiyatda faol bo‘lishi, yurtga nafi tegishi, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi, bilimli va salohiyatli bo‘lishi demakdir.

Har bir fuqaro o‘z mahallasi bilan faxrlanishi kerak. Kamchiliklar yoki muammolarni ko‘tarib chiqish bilan cheklanib qolmasdan uni bartaraf etish haqida bosh qotirish lozim. Yurtimizda kuzatilgan pandemiya sababli mahalla har bir hududda, hattoki eng chekka qishloqlarda ham fuqarolarning yaqin ko‘makchisiga aylandi.

Qat‘iy karantin talablari yo‘lga qo‘yilgan o‘tgan davrda maxalla orqali fuqarolarga zarur yordam berildi. Mavsumiy daromadidan ayrilgan, ijtimoiy ta‘minotga muhtoj ko‘plab insonlarga saxovatpesha insonlar, tadbirkorlar ko‘magi bilan yordam qo‘li cho‘zildi. Bu borada mahalla fuqarolarning birinchi murojaat qiladigan, ko‘mak so‘rab boradigan manziliga aylandi. O‘z o‘rnida oilalarda bo‘layotgan turli holatlar, fuqarolarning dardu tashvishi, muammosini yechishda jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shunday ekan bugun har jihatdan mahalla idoralarining imkoniyatlarini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash bevosita fuqarolarning huquq va manfaatlarining ta‘minlanishi hamda inson qadri ustuvorligiga xizmat qiladi.

Mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirilib, ushbu maqsadda mahallaning alohida jamg‘armasi tashkil etish amaliyotini joriy etish, mahallalarning “o‘shish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligi oshirilishiga alohida ahamiyat qaratiladi. Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta‘minlashni nazarda tutamiz.

Ta‘kidlash joizki, 73 yil avval qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi dunyoda demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo‘lida yangi imkoniyatlar ochdi. Mamlakatimizda inson huquqi va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida namoyon bo‘lishi uchun barcha choralarni ko‘rilmoqda.

Fuqaro larning emin - erkin yashash, uy - joy va yer mulkka ega bo‘lish, sog‘liqni saqlash, bilim olish kabi tabiiy huquq va erkinliklarini ta‘minlash sohasida katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta‘lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz.

“Xalqimizning dastur muhokamasidagi faolligi, ularning islohotlarga bo‘lgan ishonchi va daxldorligi ortib borayotgani xalqimiz yurtimizdagi o‘zgarishlar jarayonini, tashabbuslarimizni



qo‘llab-quvvatlayotganidan yana bir bor dalolat beradi”, dedi Prezident. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan o‘zgarishlar mahallalarning ijtimoiy himoya instituti sifatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi. Aholi muammolarini hal etishda sifat va samaradorlikni oshiradi .

Fuqarolarning farovon turmushi, oilalarning tinchligi, yoshlarning sog‘lom ma‘naviy muhitda kamol topishi – bularning barchasi mahallada namoyon bo‘ladi. Demakki, inson qadri avvalo, mazkur go‘shada tug‘iladi, kamol topadi, qadrlanadi va jamiyatning muhim omiliga aylanadi.

O‘zbekistonda bundan besh yil avval Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ijtimoiy va madaniy sohada yangicha dunyoqarash asosida shiddatli islohotlar boshlandi. Mamlakatimizda mohiyatan yangi davlat, yangi ma‘rifiy jamiyat barpo etish, unga mos qadriyat va munosabatlar tizimini shakllantirish maqsadida bir qator huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilindi. Madaniyat va san‘at sohasida ijod va ijodkor erkinligi muammolari ham to‘liq qaytadan ko‘rib chiqildi.

Fuqarolarimizda ham jamiyat rivojida, uyg‘onish davrida mening ham hissam bo‘lishi kerak, degan fikrni shakllantira olsak, rejalarimiz, intilishlarimiz yana-da tez va yuqori samara bera boshlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent - 2021. “O‘zbekiston” nashriyoti. 22.b
2. Xalq so‘zi gazetasi №50 10.03.22 yilgi soni.



## RUS TILI DUNYO TILLARIDAN BIRI

Fayzullayev Ravshonbek Ramatovich

Xorazm vil. Bog'ot tumani

42-maktab rus tili fani o'qituvchisi

Telefon:+998 99 506 69 50

**Annotatsiya:** Maqolada Rus tilining dunyo tillari tarkibida tutgan o'rnini, millatlararo muloqot tili sifatida o'ziga xos xususiyati uning o'z ijtimoiy funktsiyalarini bajarishi to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:**MDH, "Ishchi tillar", "chet tillari", zamonaviy dunyo,

Til- odamlar bir-biri bilan aloqa qilishning eng muhim vositasidir. Rus tili - rus xalqining milliy tili. O'zining kelib chiqishi bo'yicha rus tili slavyan tillariga tegishli. Rus tiliga eng yaqin slavyan tillari ukrain va belorus tillari. U Rossiya Federatsiyasida davlatga qarashli bo'lib, dunyo bo'ylab 500 milliondan ziyod odam gapirishadi.

Nafaqat MDH respublikalarida, balki Rossiya Federatsiyasidan geografik jihatdan uzoq bo'lgan mamlakatlarda ham rus tilida so'zlashadigan kuchli jamoalar mavjud: AQSh, Turkiya, Isroil va boshqalar. Rus tili dunyodagi eng boy va eng murakkab tillardan biri hisoblanadi.

Rus tilining millatlararo muloqot tili sifatida o'ziga xos xususiyati uning o'z ijtimoiy funktsiyalarini bajarishi bilan ular bilan yonma-yon va parallel ravishda ishlashida namoyon bo'ldi.

O'qish, ona tili bilan bir qatorda, rus tili ham ijobiy ahamiyatga ega, chunki u o'zaro tajriba almashishga va har bir millat va millatni boshqa barcha xalqlarning madaniy yutuqlari va jahon madaniyati bilan tanishtirishga yordam beradi. Rus tili va dunyo xalqlari tillarini o'zaro boyitishning doimiy jarayoni mavjud.

Rus tili dunyodagi etakchi tillardan biri bo'lgan va bo'lib qolmoqda. Zamonaviy dunyoda rus tilida so'zlashadigan odamlar soni bo'yicha (500 million kishi) xitoyliklar (1 milliarddan ortiq) va ingliz tilidan (750 million) keyin uchinchi o'rinda turadi. Bu eng nufuzli xalqaro tashkilotlarda (BMT, YuNESKO, JSST va boshqalar) rasmiy va ish tili.

### RUS TILINING XALQARO QADRI

JAHON TILI. Dunyo tillari - bu dastlab o'zlari yashagan odamlar yashaydigan hududlardan tashqarida turli xalqlar vakillari tomonidan o'zaro qo'llaniladiganba'zi eng keng tarqalgan tillar.

Ushbu tillarning funktsiyalari xalqaro sohalarni - diplomatiya, jahon savdosi, turizmni qamrab oladi. Turli mamlakatlar olimlari ular bilan muloqot qilishadi. Ular BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar va kongresslarning "ishchi tillari", shuningdek "chet tillari", ya'ni dunyoning aksariyat mamlakatlaridagi universitetlar va maktablarda majburiy o'qitish mavzusi sifatida qabul qilinadi.

Dunyo tillarining tarkibi o'zgaruvchan. Hozirda u ingliz, rus, frantsuz, xitoy va arab tillarini o'z ichiga oladi.

Rus tili uzoq vaqtdan beri ko'plab xalqlar va davlatlarning millatlararo hamkorlik vositasi bo'lib kelgan. 20-asrning o'rtalaridan boshlab bu dunyo tomonidan tan olingan dunyo tiliga aylandi. Uning universal qiymati eng boy rus mumtoz va zamonaviy badiiy adabiyoti bilan bog'liq bo'lib, dunyo miqyosidagi barcha tillar adabiyotining rus tiliga sifat va miqdor jihatidan tarjimasida beqiyosdir.

Insoniyat tomonidan ushbu tilning dunyo tili sifatida qabul qilinishi ushbu til mamlakatining tarix va zamonaviylikdagi obro'si, o'rnini bilan bog'liq.

Ijtimoiy-tarixiy sabablar bilan bir qatorda lingvistik sabablar ham muhimdir. Gap shundaki, bu til boshqa tillar va madaniyatlar notiqalarini o'rgatish uchun qanchalik tayyor. Bu qadimgi yozma an'analarga, belgilangan me'yorlarga ega, yaxshi o'rganilgan va grammatikalarda, lug'atlarda, darsliklarda tasvirlangan milliy adabiy til bo'lishi kerak.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 10 dekabrda PQ – 1875 son qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Chet tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" , "Xalq tizimi" gazetasi, 11.12.2012 y., 240 (5660-son)

3. Yusupov U.K. Qiyosiy tilshunoslik va tarjima nazariyasi masalalari. Respublika ilmiy anjumanining maqolalar to'plami. – Toshkent: 2007. –B. 12-15

4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. Ruscha – o'zbekcha va o'zbekcha – ruscha o'quv lug'ati.- Toshkent: Fan, 2008.



## TIL MILLATNING RAMZI

**Latipova Iroda Xursandovna**

Urganch shahar 28-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (93) 744 21 33

latipova.iroda\_28@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Davlat tilimiz bo'lgan o'zbek tilini rivojlantirish masalalari hamda, O'zbekiston fuqarolari bo'lgan boshqa millat vakillarining o'zbek tilimizga bo'lgan munosabati haqida.

**Kalit so'zlar:** Til, milat, ramz, iftixor, kitobxon, moziy, mustaqillik, qadriyat.

Ona tilimizning O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida mamlakatimizda asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va rasmiy muloqot tiliga aylanib borayotganligi istiqbol bergan buyuk ne'matlardan biridir. Bugungi kunda respublikamizda fuqarolarning davlat tilidagi savodxonligiga, xususan, Respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillarining o'zbek tilida erkin og'zaki va yozma muloqot yurita olishlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyatda tilning amaliy ahamiyati nihoyatda katta, shu bois har bir mamlakatda tillarni o'qitish, o'rganish masalalariga jiddiy e'tibor qaratiladi. Til ta'limida tilni ona tili sifatida, ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o'qitilishi o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu o'quv fanlarining nomlanishida ham aks etadi. Ma'lumki, har bir tilning davlat miqyosidagi maqomi uning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy o'rni, jug'rofiy-siyosiy holati kabi qator omillardan kelib chiqib belgilanadi. Omillardan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim 7 tilda olib borilishi, bular orasida qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq tillari bir oilaga mansub qardosh tillar ekanligi e'tiborga olinsa, ularga nisbatan "o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish" atamasini qo'llash, albatta, nojoiz bo'ladi. Ayni paytda, ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda turli millatlar vakillari, hatto o'zbeklar ham ta'lim olayotgani va eng asosiysi, ushbu turli millat vakillarining O'zbekistonda tug'ilib, respublikamizda muqim yashayotganligi ham nazarda tutilsa, o'zbek tilini ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida emas, aynan davlat tili sifatida o'qitish maqsadga muvofiqligi ham yaqqol ko'rinadi. Respublikamizda istiqomat qilayotgan 30 milliondan ortiq aholi orasida 130dan ortiq millat vakillari borligi e'tiborga olinsa, bu davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy masala ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Ma'lumki, davlat ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'quvchilar va talabalarning tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan minimal daraja ko'rsatkichlari bo'lib, ta'lim mazmuni, shakllari, usullari, baholash tartibini belgilab beradi va ta'lim mazmunining asosi hisoblanadi. Bunda o'zbek tili ta'limi oldiga qo'yiladigan asosiy talab, avvalo, o'quvchini o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, o'zgaralar bilan turli nutqiy vaziyatlarda muloqot yurita olishga o'rgatish, ya'ni kommunikativ savodxonlikni shakllantirishdan iborat. Hozirgi kunda standartlashtirishning ana shu umumiy talab va mezonlaridan kelib chiqib, o'zbek tilini o'qitishda kommunikativ modelga asoslangan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan.

O'zbek tilidagi faol nutqiy qurilmalarini o'rgatish, grammatik bilimlar, so'z va so'z birikmalarining bog'lanish qoidalarini esa nutqiy ehtiyoj, fikr ifodalash maqsadidan kelib chiqqan holda o'rgatish talab qilinadi. Ko'rinadiki, tilni ona tili sifatida o'qitish bilan ikkinchi til sifatida o'qitish o'zaro qat'iy farqlanadi va alohida tamoyillarga tayanadi. Til o'rganishda asosan nutq, muloqot yuritish, kommunikatsiya masalalariga yetakchi o'rinda turgani uchun til ta'limi tamoyillarini belgilashda ko'proq shu jihatga ustuvor ahamiyat beriladi.

Demak, Respublikamiz ta'lim bosqichlarida o'zbek tilini o'qitishni takomillashtirish, buning uchun esa, avvalo, o'zbek tili ta'limi mazmunini til ta'limining xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish zarur.

Ona tilimizning respublikamiz hududida millatlararo asosiy muloqot vositasiga aylanib borishi ko'p jihatdan umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kollejlari hamda oliy ta'lim tizimida o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilining o'qitilishi, ularda amal qilinayotgan o'quv dasturlari va darsliklar mazmuniga bog'liq.

O'zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o'qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo'lishlari, barcha sohalarida erkin fikr almashishlari uchun o'zbek tili ta'limi xalqaro standart talablariga javob berishi, o'zbek tilining kommunikativ-nutqiy



va lingvistik kompetensiyasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni yetarli darajada egallashlari ko‘zda tutiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., «O‘qituvchi», 2003.
2. Ishmuhamedov R. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste’dod» jamg‘armasi, 2008.
3. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., «O‘qituvchi», 2003.



ADABIYOT DARSLARIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM  
TEKNOLOGIYALARINING QO'LLASH

Matrasulova Sultanpashsha Farxodovna

Abdullayeva Gulandom Urunbayevna

Xorazm viloyati Xonqa tumani

7 – maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada adabiyot darslarida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasining qo'llash haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, fanlararo bog'lanish, tarqqiyot, o'zlashtirish.

Ilmu fan taraqqiyoti ko'z ilg'amas darajada tezlashgan davrda fanlararo integratsiya uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Integratsiya atamasi lotincha *integratio* so'zidan olingan bo'lib *qo'shilish, birlashish* ma'nolarini anglatadi. Ma'lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo'lgan materiallarni ma'lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etishni nazarda tutadi.

Integratsiyalashgan ta'lim va fanlararo aloqa bir-birini to'ldiradigan ikki xil tushuncha. Fanlararo aloqada o'quvchining ma'lum bilimlarni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu muammoni imkon qadar chuqur anglash hamda olingan bilimlarni amaliyotga samarali joriy etishga imkon berish maqsadida o'quv fanlari ora-sida o'rnatiladigan aloqa nazarda tutiladi.

Integratsiya esa fanlararo aloqaga, ya'ni umuman fanlar, o'quv fanlari, ularning bo'lim va mavzulari bo'yicha olingan bilimlar-ga tayanilgan holda o'rganilgan masalaga xos bo'lgan yetakchi g'oyalarni hamda hodisalarning izchil, har jihatdan chuqur hamda serqirra ochilishi demakdir.

Biror muammoning yechimini fanlararo aloqaga asoslangan holda integratsion o'rganish uchun o'qituvchi, avval maqsadni aniq belgilab olishi, o'rganiladigan materialni qayta qarab chiqishi, uning samarali o'zlashtirilishi uchun mos metodlarni tanlashi, dars jarayonini tashkil etishning shakli va zaruriy ashyolarini aniqlashi va olinadigan natijalarni oldindan belgilab chiqishi taqozo etiladi.

Fanlararo aloqa xarakteridagi integratsiyalashgan darslar tizimi ma'lum o'quv fani bo'yicha yil davomidagi mashg'ulotlarning maksimal qismini tashkil etishi lozim. O'zlashtirilgan bilimlarning har xil aspektida ochilishi, masalan, biror badiiy asar mazmunidagi voqea-hodisalarning ham geografik, ham biologik, ham botanik, ham psixologik bilimlarga tayanilgan holda va insoniy tuyg'ular asosida ochib berilishi shakllanib kelayotgan shaxsning fikrlash, his qilish, qayg'udosh bo'lish singari jihatlardan rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiy ta'limni integratsiyalash bo'yicha taqdim etilgan bu shakllarning har biri alohida ta'lim muassasalari va turli shart-sharoitlarda o'z xususiyatiga ega, albatta. Ayni zamonda, ta'lim amaliyotini integratsiyalashning bu shakllarida ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan jihatlar ham mavjud.

Masalan, «o'quv, ilmiy va maktab amaliyoti kompleksi integratsiyasi»da bo'lajak adabiyot o'qituvchisining adabiyot va ona tili o'qitish metodikasi, adabiyotshunoslik, pedagogika, tarix va hk. fanlar orqali o'zlashtirgan bilimlarini maktab amaliyotida, badiiy asarlar tahlili jarayonida umumlashtirgan holda qo'llay bili-shi nazarda tutiladi. Shu maqsadda oliy pedagogik ta'limda pedagogik amaliyotlar tashkil etilgan.

Davr bo'lajak adabiyot o'qituvchilarining oldiga yangicha ta'lablar qo'yimoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentli-ligi ularning ilmiy salohiyati bilan o'lchanadi. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisi o'z maqsad va vazifalarini o'quvchilarning maqsad va vazifalariga moslashtira bilishi taqozo etiladi. Kelajakda adabiyot o'qitish ishi bilan shug'ullanadigan talabalarning adabiy ta'lim bo'yicha olgan bilimlari o'qitish amaliyotida ona tili, adabiyotshunoslik, tarix, pedagogika, san'atshunoslik fan-lari bo'yicha bilimlari bilan bevosita, ruhshunoslik, tabiatshunoslik, biologiya va boshqa bir qator fanlar bilan esa bilvosita integratsiyalashadi.

Masalan, Shayxzodaning 5-sinf «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan «Iskandar Zulqarnayn» dostonini o'tishda tarix fani; O'. Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasini o'rganishda ruhshunoslik fani; Nodar Dumbadzening «Hellados» hikoyasini o'rganishda geografiya; Janni Rodarining 6-sinf «Adabiyot» darsligidan o'rin olgan «Hurishni eplolmagan kuchukcha» hikoyasini o'rganishda zoologiya; Abdulla Qahhorning «Bemor», Odil Yoqubovning «Muzqaymoq»



hikoyalari, erkin Vohidovning «Nido» dostonlarini o‘rganishda tarix; Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari, Chingiz Aytmatovning «Oq kema» qissasi singari adabiy materiallarning mohiyatiga kirishda zoologiya fanlariaro aloqa-dorlikka tayanish, ya’ni shu o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlarni integratsiyalagan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy ta’limni tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda olgan bilimlari ham ma’lum darajada asqotadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent - 2021. “O‘zbekiston” nashriyoti. 22.b
2. Xalq so‘zi gazetasi №50 10.03.22 yilgi soni.



## DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING IDROK QILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH

**Qurbonova Sayyora Yuldashovna  
Pirnazarova Zamira Matnazarovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani  
3 – maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatini shakllantirish, didaktik o‘yin texnologiyalarining ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** didaktik o‘yin texnologiyalari, milliy dastur, idrok qilish.

Hozirgi kunda biz har bir fanning o‘qitishda yangicha usul, metodlar, o‘yinlardan foydalanmoqdamiz. Milliy dastur ishlab chiqilishini mohiyati shunda. Yangicha usullarda ishlab chiqilgan darsliklarda ham buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. XIX – XX asrlarda bola faqat partada o‘tirib dars o‘tib, mavzu yodlab o‘qitilgan bo‘lsa, XXI asr ta‘lim sohasida esa aksi. Darslarda o‘quvchi harakat qilishi, yodlashga cheklov qo‘yilib bolada tanqidiy fikrlashning shakllantirishimiz lozim.

O‘qitish jarayoning sifati va samaradorligini oshirish masalalarining asosini o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatini faollashtirish tashkil qiladi. O‘quvchilarning idrok qilish faoliyatini rivojlantirish intellektual, axloqiy erkinlik, jismoniy kuchlarini o‘z faoliyatidagi aniq talablarni qondirishga yo‘llaydi. Faollikning o‘zi inson faoliyatini aniqlaydi.

O‘quvchilarning idrok qilish faolligini oshirish tamoyilining didaktik kansepsiyalari yangi masalalarni ishlab chiqish va yo‘llarini aniqlash, uni joriy qilish omillari bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra o‘quvchilarning idrok qilish qobiliyatini faollashtirishning didaktik omillari kansepsiyasini adabiyot darslaridan o‘tkaziladigan didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o‘yinlarning mazmuni va o‘tkazish shakllarini takomillashtirish yo‘li yordamida idrok qilish faoliyatini rivojlantirishga ko‘rsatayotgan ta‘sirini o‘rganish orqali zamonaviy talablarga javob beradigan o‘qitish uslublarini yangitdan ishlab chiqish mumkin. Bayon qilingan maqsad va takliflarni amalga oshirish uchun qator xususiy masalalarni yechishga to‘g‘ri keladi.

- didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini asoslab berish;
- o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshirish uchun o‘yin mazmuni va shakllarini takomillashtirish metodlarini aniqlash;
- o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshiradigan jarayonlarda o‘qituvchining tipik qiynalishi faoliyatini ochib berish;
- o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshiradigan sharoitlarni o‘yinlar orqali aniqlash va o‘rganish;
- o‘yinlar davrida qo‘yilgan maqsad va vazifalarni aniqlab o‘rganilgandan so‘ng o‘quvchilarning idrok qilish faoliyatining faolligini oshirishga bo‘lgan didaktik talablarni ishlab chiqish;
- aniqlangan yutuq va kamchiliklarni o‘rganib, kamchiliklarni bartaraf qiladigan metodik ishlanmalar yaratish hamda yutuqlarga nazariy model tuzish.

O‘rtaga tashlanayotgan didaktik o‘yinlarning yutug‘i shundan iboratki, har bir qo‘yilgan savolga beriladigan javob shaxsning individual fikr yuritishga majbur qilishdadir.

Didaktik o‘yinlar jarayonida shaxsning mustaqil fikr yuritishga, mulohaza qilishga, taqqoslashga o‘rgata olinsa, fazoviy tafakkur qilish qobiliyati yanada o‘sadi shunda, o‘quvchilarning boshqa fanlarni ham yuqori saviyada o‘zlashtirishlariga imkon yaratilgan bo‘ladi, ya‘ni:

- o‘quvchilarda yangi bilimlar olishga bo‘lgan ishtiyoqni shakllantirishga erishiladi;
- o‘quv axborotlarni o‘zlashtirishda umumiy va xususiy ko‘rinishlardagi muammolarni yechishda ijodiy fikrlashga olib keladi;
- olgan bilim va ko‘nikmalarni yangi sharoitga moslashtirishga o‘rgatiladi;
- har bir o‘quvchining idrok qilish qobiliyati faoliyatiga maksimal sharoit yaratilgan bo‘ladi.

O‘yinni birinchi darsdan o‘tkazishga shoshilmaslik kerak. Oldin o‘quvchilarda adabiyot fanidan ma‘lum darajada bilim hosil qilish lozim. Shuning uchun o‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarning bilim darajalarini o‘rganib chiqqandan keyingina o‘yin mavzusini tanlash tavsiya etiladi. Ba‘zida o‘yinni yangi o‘tilgan mavzuni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini tekshirish maqsadida o‘tkazish ham mumkin. Ba‘zi hollarda dars davomida o‘quvchilar mavzuni tushunishga



qiynalishsalar, shu mavzuga bog‘liq bo‘lgan, ammo o‘tilgan dars yuzasidan o‘quvchilarning faolligini oshirish maqsadida o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘yinda sinfdagi hamma o‘quvchilarning qatnashishi yoki ular ikkita va undan ortiq guruhlariga bo‘linib o‘ynashi mumkin.

Ba‘zi o‘yinlarni sinfdan tashqarida o‘tkazish mumkin. Adabiyotdan o‘tkaziladigan viktorina, olimpiada kabi tanlovlarda ham o‘tkazish yaxshi natija beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Rafiyev A. , G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to‘plami. T. “Navro‘z”, 2018.



## LISONIY TAHLIL HAQIDA. FONETIK TAHLIL VA UNING O'ZIGA XOS TOMONLARI, LISONIY TAHLIL VA UNING TURLARI

Xodjaniyazov Farhod Sheryazovich  
Xujaniyazova Zulxumar Yuldashevna

Xorazm viloyati Urganch tumani

3 – maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada lisoniy tahlil haqida, fonetik tahlil va uning o'ziga xos tomonlari, lisoniy tahlil va uning turlari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, lisoniy tahlil, fonetik tahlil, leksikologiya, morfemika.

Ona tili darslarining bosh vazifasi o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda til hodisalarini puxta o'zlashtirish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini bilishning ahamiyati katta. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar fonetika, leksikologiya, morfemika, so'z yasalishi, so'z turkumlari, sintaksis kabi tilshunoslik fani bo'limlaridan tegishli tarzda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishlari DTS, dastur va darsliklar talabi asosida amalga oshiriladi. O'quvchilarning yuqorida sanab o'tilgan bo'lim va mavzulardan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini holatini tekshirish, nazorat qilishning juda ko'plab tajriba-sinovidan o'tgan usullari mavjud. Bu usullardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z tajribalarida keng ko'lamda samarali foydalanib kelishmoqdalar. Lekin bir ish turi mavjudki, u boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili fanidan egallagan BKMLari darajasini to'g'ri va haqqoniy belgilab berish bilan bir qatorda ularni mustaqil va ijodiy fikrlash, mantiqiy tafakkur yuritish, mavjud til hodisalarini farqlash, ularni umumlashtirish, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy faoliyat bilan shug'ullanishga majbur qiladi va buning natijasida bolada mavjud til hodisalariga tanqidiy ko'z bilan qarash asosida dunyoqarashlarining kengayishi, ilmiy mushohada va mulohaza yurita olish ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi. Shu bois ham ona tili darslarida o'quvchilarni lingvistik tahlilga o'rgatish muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarni lisoniy tahlilga o'rgatish muammosi til o'qitish nazariyasi va metodikasida yangilik emas. O'quvchilarni lisoniy tahlilga o'rgatish rus olimi A.V.Tekuchev, o'zbek olimlari Y.Abdullaev, X. G'ulomova, M.Mirmahmudovalar tomonidan chuqur va atroflicha o'rganilgan. Ammo ularning ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini lisoniy tahlilga o'rgatish tadqiqot ob'ekti qilib olinmagan. 5 Metodist Karima Qosimova rahbarligidagi mualliflar guruhi tomonidan yaratilgan “Ona tili o'qitish metodikasi” nomli darslikda2 grammatik tahlil turlari sifatida fonetik, morfologik va sintaktik tahlillar kiritilgan, ularni o'tkazish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan. Darslikda bu masala juda qisqa yoritilgan bo'lib, unda tahlil uchun material tanlash, lisoniy tahlilni o'tkazishdagi izchillik, ish turlari haqida fikr bildirilmaydi. T.Ashrapova, M.Odilovalar o'z darsliklarida “Grammatik tahlil va uning turlari” mavzusini o'rganishga alohida to'xtaladilar. Ular grammatik tahlilning ahamiyati haqida: “O'quvchilar grammatika va imlodan olgan bilimlarini qay darajada o'zlashtirganini hisobga olish maqsadida o'tkaziladi”, - deb grammatik tahlilning ahamiyatiga e'tibor qaratadilar va grammatik tahlilni 1) mazmuniga ko'ra: fonetik, morfologik, sintaktik, aralash tahlil; 2) hajmiga ko'ra: to'liq tahlil, to'liq bo'lmagan tahlil; 3) shakliga ko'ra: og'zaki va yozma kabi turlarga ajratadilar3 . Bu darslikda ham boshlang'ich sinflarda grammatik tahlilni o'tkazish izchilligi, tahlil o'tkazishda didaktik vositalardan foydalanish haqida fikr bildirilmagan. Boshlang'ich sinf "Ona tili" darsliklarida ham lisoniy tahlilga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Lisoniy tahlilning biron turi haqida nazariy ma'lumot, amaliy malakalar hosil qilish yuzasidan topshiriqlar berilmagan. “So'z tarkibi”ni o'rganishda so'zning tarkibi, qanday qismlardan iboratligini shartli chiziqlar yordamida ko'rsatish o'rgatiladi. Shuningdek, 4-sinf darsligidagi 104-mashqda “qaldirg'och” so'zini tovush-harf tomondan tahlil qilish so'ralgan va quyidagi namuna berilgan: Tovush-harf tahlili tartibi. Zag'cha (zag'cha) – 5 ta tovush, 4 - ta harf, 1 - harf birikmasi. Unli tovushlar: a, a. Undosh tovushlar: z, g', ch. Jarangli undoshlar: z, g'.

Bizning fikrimizcha, “grammatik tahlil” atamasi faqat morfologiya va sintaktik hodisalarga xosdir. “Lisoniy tahlil” esa til fanining boshqa qismlarini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan “lisoniy tahlil” atamasini qo'llashni lozim deb topdik. Lisoniy tahlil – aniq bir til yoki nutq biriligini parchalab o'rganishdir. Lisoniy tahlil til hodisalarini qamrash chegarasiga qarab to'liq va to'liqsiz bo'lishi mumkin. Masalan, “Ot so'z turkumi” mavzusi o'rgatilgandan so'ng to'liqsiz



tahlil o‘tkaziladi. Bunda diqqat uch masalaga qaratiladi: so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansubligi, so‘rog‘i, soni. Bundan keyingi tahlil, ya‘ni e‘tibor qaratiladigan masalalar ortib boradi: ot, otlarda son, egalik, kelishik kabi. Lisoniy tahlil bajarish shakliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi. 1. Og‘zaki tahlil. 2. Yozma tahlil. Og‘zaki tahlil o‘quvchilarning bilimlarini qisqa vaqt ichida aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, o‘quvchi xatoga yo‘l qo‘ysa, unga o‘z vaqtida yordamlashish imkoni bor. Yozma tahlilning ham o‘ziga xos ijobiy tomonlari bor. O‘quvchi fikrlarini bemalol bayon qilish imkoniyatiga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent - 2021. “O‘zbekiston” nashriyoti. 22.b
2. Xalq so‘zi gazetasi №50 10.03.22 yilgi soni.



## ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ДАРСЛАРИДА МАШГ’УЛОТЛАРИ О’ҚУВЧИЛАР СО’З БОЙЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ

**Boydjanova Muborak Boltabayevna**  
**Kushchanova Maqsuda Reyimberganovna**  
Urganch tuman 19- sonli maktab  
ona tili va adabiyot o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili va adabiyot mashg’ulotlari- o’quvchilar so’z boyligini oshirishning bosh omili haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** Kuy va qo’shiqlarning , ohangdor va intanatsion , qo’shiq , she’r , musiqiy did

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo’lgan o’zbek tili xalqimiz uchun milliy o’zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

*Shavkat Mirziyoyev Miromonovich*

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o’zining “Mahbub ul-qulub” kitobining uchinchi qismida tilni ko’ngil xazinasining kaliti deb ta’riflaydi. Haqiqatda insonning ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasi, odob-axloqi, ma’daniyati uning tili orqali nomoyon bo’ladi. Ona tilimizga hurmat va muhabbatimiz jism-u jonimizga onamizning oq suti bilan kirgan, qalbimizga allaning so’zlari, ilk muallimimiz o’rgatgan alifbo timsolida singib, kattalar-u ustozlardan eshitganlarimiz, kitoblardan o’qib olganlarimiz orqali qalbimizga jo bo’lgan. O’z tilini yaxshi bilgan, uning har bir so’zini e’zozlaguvchi kishi millati va zalqini sevadigan, odobli tarbiyasi bo’ladi. Inson so’ziga, gapirayotgan gapiga qarab hurmat- e’tibor topadi. Adib Yusuf xos Hojib “Qutadg’u bilig” asarida shunday deydi.

Erkim so’z va’jidan taxtga egadir,

So’z kim, er boshini pastga egadir.

Globalashuv asrida so’zning qudrati cheksiz. O’quvchilarning so’z boyligini oshirishda ona tili ta’limi asosiy omil ekanligi, shubhasiz. Bugun mustaqil O’zbekistonimizda ona tili va xorijiy tillarni o’qitishga nihoyatda katta ahamiyat berilmoqda. Tilning, xususan ona tilining shaxs kamolotidagi o’rnini hech narsa bilan qiyoslab bo’lmaydi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimovning mana bu so’zlarini hech kim, ayniqsa til va adabiyot o’qituvchisining unutishga haqqi yo’q: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, onatilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-bu millatning ruhidir. O’z tilini yo’qotgan har qanday millat o’zligidan judo bo’lishi muqarrar. Hech kimga sir emaski ta’lim va tarbiya jarayonlarini bir-biridan ajratib bo’lmaydi. Albatta, ta’limga aqliy idrok birlamchi bo’lsa, tarbiyaga ruhiy idrok yetakchidir. Bugun ona tili ta’limi va ta’limning sifati hamda samaradorligi dolzarb masaladir. Bu hol yurtimizdagi ona tili va adabiyot o’qituvchilardan yanada teran ma’sulyat, fidoiylik va faol ijodiy izlanishni talab etadi. Ta’limda, ayniqsa, ona tili ta’limida o’qituvchi nutqining sifati hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. O’qituvchi ma’daniy nutqning barcha sifatlarini qanchalik to’liq egallagan bo’lmasin, nutq texnikasi yetarli bo’lmasin, uning darsimaqsadga erishmaydi. Jonli tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to’g’ri voqealantirish ko’nikma va malakalarning jami nutq texnikasi demakdir. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to’g’ri nafas olish, tovush va tovush qo’shilmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diksiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Adabiyot fanidan o’quvchilarda o’qilgan asarni tushunish, undan ta’sirlanish, uni estetik tahlil qilib, badiiy ma’no chiqara olish malakasini shakllantirishdir. Badiiy asarga faol yondashuv o’quvchida fuqorolik pozitsiyasini shakllanishiga yordam beradi. O’quvchilarda qaysi qahramonning boshidan qanday voqealar o’tganini bilish ahamiyatsizdir. Ularga qahramon ruhiyatidagi o’zgarishlar, hissiyotidagi jilvalar, iztirob-u hayratlar ko’lamini ilg’ash muhimroqdir. Chunki o’quvchi ma’naviyati voqealarni bilish tufayli emas, balki personajlar ruhiyati tovlanishlarini tuyish, o’y va sezimlarini anglash natijasida shakllanadi. O’shanda bolaning tuyg’ulari tozarib, ruhiyati yuksaladi. SHu bois adabiyot o’qitishda asosiy e’tibor o’tilayotgan matnning badiiy jozibasini ochishga qaratishga e’tibor qaratish lozim. Buning uchun matnning o’quvchilar tomonidan bevosita idrok etishiga erishish, ularga qiziqarli va o’ylantiradigan savollar berish hamda ularni bu so’roqlarga javob topishga yo’naltira bilish zarurdir. Badiiy matndan ta’sirlanadigan, uning jozibasi qayerdaligini aniqlay biladigan o’quvchining ruhiyati uyg’oq



bo'lib, go'zallikka hayrat bilan qaray oladi. Matnni jozibasini tuyish bolada emosional faollik uyg'otadi. Hissiy faollik, o'z navbatida, uni mantiqiy harakatga undaydi. Adabiyot o'qitishdagi o'ziga xos jihatlardan yana biri, o'rganilgan bir asar yuzasidan sinfdagi o'quvchilar turlicha xulosaga kelishi mumkin. Adabiyot mashg'ulotlarida yetarli samaraga erishmoqchi bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim jarayonining tehg huquqli ijrochisi, o'zining sherigi sifatida munosabatda bo'lishi shart. Mamlakatimizning buyuk kelajagini ta'minlash uchun, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashni samarali yo'lga qo'yishimiz kerak. Maktablarda ona tili va adabiyot mashg'ulotlarda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash, so'z boyliklarini oshirish kabi tomonlariga etibor qaratish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Chunki, adabiyot bevosita o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Zero, buyuk kelajagimiz yoshlarimiz qo'lidadir!

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 7-ҚИСМ

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000